



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI

An'anaviy
DUTOR

VI
A-74


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
RESPUBLIKA MADANIYAT MUASSASALARI FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH ILMIY – METODIK MARKAZI

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI

Ilyos Arabov

AN'ANAVIY DUTOR

O'quv qo'llanma



Toshkent
«Tafakkur avlodi»
2022



UO'K 780.614.11(075.8)

KBK 85.315.3ya73

A 74

Mas'ul muharrir:

A.Zokirov – Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI O'quv ishlari bo'yicha prorektori, "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, musiqashunos.

Musiqiy muharrirlar:

D.Aliyev – Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI "Professional ta'lim" fakulteti dekani o'rinnbosari, musiqashunos.

J.Abdujabbarov – Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi rahbari.

Taqrizchilar:

M.Ziyayeva – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori v.b., O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist.

A.Umarov – Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi professori.

R.Xodjayeva - O'zbekiston davlat konservatoriysi "Xalq cholg'ulari" kafedrasi professori v.b.

Nashr uchun mas'ul:

Sh.Abduxoshimov - Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI matbuot kotibi, musiqashunos.

An'anaviy dutor [Matn]: o'quv qo'llanma / I. Arabov. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2022. – 32 b.

UO'K 780.614.11(075.8)

KBK 85.315.3ya73

ISBN 978-9943-6901-4-1



© I. Arabov

© «Tafakkur avlodi», 2022



ANNOTATSIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 26-27-iyun kunlari Namangan viloyatiga tashrifi doirasida, viloyat faollari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar hamda 2022-yil 2-fevraldag'i PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati inistituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan "**An'anaviy dutor**" o'quv qo'llanmasi institut Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma **dutor** cholg'usining qisqacha tarixi, nazariy qoidalari, mashq hamda kuylardan iborat bo'lib, ulardan dars va mustaqil mashg'ulotlar jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

O'quv qo'llanmada **dutor** cholg'usiga qiziquvchi o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishlari uchun innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanilgan. Har bir dars mavzusining audio va video yozuvlari **QR** – kod shtrixiga joylashtirilgan bo'lib, giper iqtiboslar orqali qo'l telefoni skaneri yordamida ochiladi.

"An'anaviy dutor" – davlat ta'lim standartlariga binoan Musiqa va san'at maktablari boshlang'ich 1, 2, 3 sinflari hamda umumta'lim maktablarining 5, 6, 7 sınıf o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

KIRISH

Dutor cholg'u sozi haqida qisqacha ma'lumot

Dutor – fors tilidan olingen bo'lib, ikki tor degan ma'noni anglatadi. Ushbu cholg'u o'zbek, tojik, uyg'ur, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida keng tarqalgan. O'zbek dutori mayin, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. U asosan tut, o'rik yog'ochlaridan yasaladi. Cholg'uning kosaxonasi (rezonatori) 8-12 ta yupqa, bir-biriga yonma-yon yopishtirilgan taxtacha (qovurg'a)dan ishlanadi. Kosaxonaning ustki, ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo'g'oz orqali dastaga ulanadi. Dutorning uzun va ingichka dastasiga 15-17 ta parda bog'lanadi. Kosaxona va dastaga suyak va sadafdan ishlangan bezak naqshlar o'yib yopishtiriladi. Torlari ipak iplaridan eshiladi. Ular Tanavor sozi (kvarta), Munojot sozi (kvinta), Qo'shtor sozi (unison)ga sozlanadi. Uyg'urlarda dutor kattaroq shaklda, Turkmanistonda faqat o'yma (qazma) turi, Xorazm va Qoraqalpog'istonnda kosaxonasi qovurg'ali dutorlar bilan birga hajmi kichik, o'yma xillari ham uchraydi. Dutor yakkanavoz va jo'rnavoz cholg'u sozi bo'lib, sozandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutorda yakka zarb, qo'shzarb, bilak zarb, bidratma (terma), teskari zarb kabi ijro usullari mavjud.

Dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayniyning "Musiqanining ilmiy va amaliy qoidalari" nomli risolasi (16-bobi)da uchratamiz. XVI-XVII asrlarda "Dutoriy" taxallusi bilan ijod etgan (hirotlik Yusuf Mavdudiy Dutoriy, mashhadlik Mirquliy Dutoriy kabi) sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan.

Hozirda an'anaviy dutor ijrochiligining o'ziga xos uslublariga binoan 4 ta asosiy Andijon, Toshkent, Samarqand va Xorazm maktablari orqali namoyon bo'ladi. XX asrda Andijon maktabi namoyandalaridan Dorip dutorchi, M.Najmiddinov, O.Rustamov, K.Jabborov; Farg'onada: Qo'zixon Madrahimov ijrosida "Nolish", "Cho'pon", "Andijon Kurdi", "Andijon



Sayqali”, “Tuya bo‘zloq”, “Qo‘shtor”; Toshkent maktabi yirik vakillaridan Solixon Hoji, A. Vahobov, F. Sodiqov, M. Yunusov, T. Alimatov, Z. Obidov, S. Yo‘ldoshevlar talqinida: “Sharob I, II”, “Shafoat I, II, III”, “Toshkent Sayqali”, “Toshkent Kurdi”, “Rajabiy I, II”, “Kurash”, “Dutor Bayoti”, “Dutor Navosi”; Samarqand maktabi ustozlарidan: Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Qori Siroj Yusupovlar ijrosida “Guluzorim”, “Bebokcha”, “Bozurgoniy”, “Gullar vodiysi”; Xorazm maktabi vakillaridan N. Boltayev, Y. Jabborovlar ijrosida “Qora Dali”, “Aliqambar”, “Saqili Navo” singari mumtoz kuylarda o‘z ifodasini topgan.

1970-yillardan yakka dutorda Shashmaqom cholg‘u va ashula yo‘llari ham ijro etila boshlandi. O‘zbek bastakorlaridan N. Hasanov “Gilos”, F. Sodiqov “Dutorim”, S. Yo‘ldoshev “Dil kuylasin”, Z. Obidov “Tog‘ go‘zali”, O. Qosimov “Yangra sozim” kabi asarlarni dutor uchun yaratganlar.

1-dars



Dutorning tuzilishi




Dutor – fors tilidan olingan bo'lib, ikki tor degan ma'noni anglatadi. Bu cholg'u sozi asosan tut, o'rik va yong'oq daraxtlaridan yasaladi. Dutor tuzilish jihatidan ikki qismga bo'linadi: kosaxona va dasta qismlari.

Kosaxona qismi: tut daraxtidan yasalgan bo'lib qopqog'i, xarragi, torlarni ilish uchun ilgagi, 8-12 ta qovurg'alari hamda dasta bilan qovurg'alarmi bog'lovchi bo'g'ozni bor.

Dasta qismi: 15 ta bog'langan hamda 3 ta xas pardalardan iborat. Ikkita qulog'i va shayton xarragi mavjud.

Dastasi asosan o'rik daraxtidan yasaladi.



Topshiriq:

1-darsda o'tilgan dutorning tarixi va tuzulishini yaxshilab o'qib, yoddan aytib berish.

2-dars



Dutorning ushlash holatlari



Dutor cholg'usi odatda o'tirib ijro etiladi. Oyoqlarni chiroyli holatda qo'yib, o'ng oyoq chap oyoqqa nisbatan oldinroqda turadi. Dutorning kosa qismi o'ng oyoq ustiga joylashtiriladi. Yelkalarni bo'sh qo'ygan holda qomat tik tutib o'tiriladi. Dutor dastasining balandligi yelka barobarida bo'lishi lozim.



Topshiriq:

Uyda dutorning ushlash holatlarini ko'zguga qarab mashq qilish va o'tgan darslarni takrorlash.

3-dars



Dutorning sozlanishi va intervallar


Dutor uch xil sozlanadi: kvarta, kvinta va unison. Xalq orasida Munojot, Tanavor va Qo'shtor sozlar deb yuritiladi.

Kvarta (Munojot) sozida birinchi tor "re" tovushiga sozlanadi. ikkinchi tor esa "sol" tovushiga sozlanadi.


Kvinta (Tanavor) sozida birinchi tor "re" tovushiga sozlanadi. ikkinchi tor esa "lya" tovushiga sozlanadi.

Unison (Qo'shtor) sozida ikkala tor ham "re" tovushiga sozlanadi.



Munojot (kvarta)



Tanavor (kvinta)














Qo'shtor (unison)





Intervallar

Ikki tovush oralig'i – "Interval" deyiladi. Interval tovushlari birin-ketin chalinsa melodik interval (gorizontal harakat), bir vaqtning o'zida chalinsa garmonik interval (vertikal)ni hosil qiladi. Intervalning pastki tovushi interval asosi, yuqori tovushi esa interval cho'qqisi deyiladi.

Intervallar nomi	Tonlar miqdori	Misollar
Sof prima	0	
Kichuk sekunda	0,5	
Katta sekunda	1	
Kichik tersiya	1,5	
Katta tersiya	2	
Sof kvarta	2,5	
Sof kvinta	3,5	
Kichik seksta	4	
Katta seksta	4,5	
Kichik septima	5	
Katta septima	5,5	
Sof oktava	6	

Topshiriq:

Dutor cholg'usini sozlashni uyda mashq qilish hamda intervallarni yodlab kelish.






4-dars



Nota cho'zimlari va uning joylashuvi

Nota cho'zimlari

1.	○	-	Butun nota	1i-2i-3i-4i ga sanaladi
2.	♩	-	Yarim nota	1i-2i ga sanaladi
3.	♪	-	Chorak nota	1i ga sanaladi
4.	♪	-	Nimchorak nota	1 yoki i ga sanaladi
5.	♪	-	O'n oltitalik	to'rttasi 1i ga sanaladi
6.	♪	-	O'ttiz ikkitali	sakkiztasi 1i ga sanaladi



Alteratsiya belgilari.

– Diez tovushni yarim ton ko'taradi.

♭ – Bemoll tovushni yarim ton pasaytiradi.

♯ – Bekar diez va bemol ta'sirini bekor qiladi.



Nota joylashuvi:

A musical staff with a treble clef and five horizontal lines. Seven notes are placed on the staff, each with a vertical line below it labeled: DO, RE, MI, FA, SOL, LYA, and SI.

DO – tovushi birinchi qo'shimcha chiziqning o'zida joylashgan

RE – tovushi birinchi asosiy chiziqning tagida joylashgan

MI – tovushi birinchi asosiy chiziqning o'zida joylashgan

FA – tovushi birinchi va ikkinchi chiziqlar orasida joylashgan

SOL – tovushi ikkinchi asosiy chiziqning o'zida joylashgan

LYA – tovushi ikkinchi va uchinchi chiziqlar orasida joylashgan

SI – tovushi uchinchi chiziqning o'zida joylashgan




Topshiriq:

Nota cho'zimlarini va joylashuvini nota daftariga yozib chiqish hamda ularni har birini yodlash.

5-dars



Dutorda notalarning joylashuvi



Topshiriq:

Dutorda notalar joylashuvini yodlab kelish.

6-dars



Oddiy zarblar mashqi



O'ng qo'l barmoqlari juftlangan holda pastga yo'naltiriladi. Bu zerb kirill alifbosining “**П**” harfi bilan belgilanadi.

Bosh barmoqni tepaga yo'naltirganimizda yuqori zerb hosil bo'ladi. Bu zerb lotin alifbosining “**V**” harfi bilan belgilanadi.

Mashqlarimiz “re” majorda ijro etiladi. “Re” majorda ikkita belgi bor: ya’ni fa# va do#



1-mashq

1i 2i 1i 2i 1 - i 2 - i 1 - i 2 - i

1-etyd

1 - i 2 - i 1 - i 2 - i 1 - i 2 - i 1 - i 2 - i 1 - i 2 - i



Topshiriq:

Birinchi mashq va etyudni har birini 15 daqiqadan har kuni mashq qilish to ravon chiqquniga qadar. Sanab chalishni unutmang.

7-dars



2-mashq

1i 2-i 1i 2-i



2-etyd

1i 2-i 1i 2-i 1i 2-i 1i 2-i 1i 2-i 1i 2-i



Topshiriq:

Ikkinchi mashq va etyudni har kuni 20 daqiqadan mashq qilib yodlashga harakat qilish. O'tgan darsdagi mashqlarni 10 daqiqa takrorlash.



8-dars



3-mashq

2

1 - i 2i 1 - i 2i

3-etyd

2

1 - i 2i 1 - i 2i 1 - i 2i 1 - i 2i 1 - i 2i

2

1 - i 2i 1 - i 2i 1 - i 2i 1 - i 2i 1 - i 2i



Topshiriq:

Uchinchi mashq va etyudni 15 daqiqadan sanab chalish va o'tgan barcha darslarni takrorlash.





9-dars



4-mashq

Musical notation for a 4-beat exercise. The time signature is 2/4. The notes are eighth notes. The rhythm pattern is: V V V V. Below the notes are the fingerings: 1i 2 - i 1 - i 2i.

4-etymud

Musical notation for a 4-measure etymud exercise. The time signature is 2/4. The notes are eighth notes. The rhythm pattern is: V V V V. Below the notes are the fingerings: 1i 2 - i 1 - i 2i.



Topshiriq:

To'qqizinchil darsda o'tilgan mashq va etyudni har galgiday 20 daqiqa sanab chalish va yodlash.

10-dars



Murakkab zarblar



5-mashq

2/4 time signature, treble clef. The pattern consists of two measures of eighth notes followed by two measures of sixteenth notes. The lyrics below are: 1 - i-hi 2 - i-hi 1 - i-hi 2 - i-hi



5-etyd

2/4 time signature, treble clef. The pattern consists of five measures of eighth notes. The lyrics below are: 1 - i-hi 2 - i-hi 1- i-hi 2 - i - hi 1- i - hi 2 - i - hi 1- i-hi 2i



“Shukrona” professional dutorchilar ansamblı.



Topshiriq:

Murakkab zarblarni diqqat bilan sanab chalish. Shtrixlarga e'tiborliroq bo'lib eslab qolishga harakat qilamiz.





11-dars



6-mashq

2

♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩

♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩

1 - i-hi 2 - i-hi 1 - i - hi 2 - i - hi



6-etyud

2

♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩

♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩

♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩

♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩

♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩ ♩

1 - i-hi 2 - i-hi 1 - i-hi 2 - i-hi 1 - i-hi 2i



Topshiriq:

O'ninchi va o'n birinchi darslardagi shtrixlar ko'rinish jihatdan deyarli bir xil ammo shtrixda farq qiladi. Har birini 20 daqiqadan har kuni ketma-ket chalish.



Terma zarb

Terma zarb asosan o'n oltitalik notalar ko'rinishida uchraydi. O'ng qo'lning jimjiloq, bosh va ko'rsatkich barmoqlari ishtirokida hosil qilinadi.

Π Π V V – birinchi zarb jimjiloq bilan pastga
ikkinci zarb bosh barmoq bilan pastga
uchinch zarb bosh barmoq bilan tepaga
to'rtinchi zarb ko'rsatkich barmoq bilan tepaga ijro etiladi



7-mashq

j b b k j b b k j b b k j b b k
 □ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V
 1 i 2 i 1 i 2 i 1 i



7-etyd

j b b k j b b k j b b k j b b k
 □ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V
 1 i 2 i 1 i 2 i 1 i 2 i



Topshiriq:

Terma zarb dutor ijrochiligidagi ko'pchilikni qiziqtirgan zarb hisoblanadi. Agarda dutorni chiroyli jozibali qilib chalishni xoxlasangiz shu zarb ustida shoshmasdan ko'proq shug'llanishingizga to'g'ri keladi. Har kuni kamida 30 daqiqa mashq qiling.

13-dars



8-etyud



j b b k j b b k j b b k j b b k j b b k j b b k
□ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V

#2

1 i 2 i 1 i 2 i 1 i 2 i 1 i 2 i

j b b k j b b k j b b k j b b k j b b k j b b k j b b k
□ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V □ □ V V □

#2

1 i 2 i 1 i 2 i 1 i 2 i 1 i 2 i



“Shukrona” professional dutorchilar ansamblı
O‘zbekiston mustaqilligining 28 yillik bayramida



Topshiriq:

Terma zarbni mustahkamlash uchun yana qo’shimcha etyud. Bu etyudni ham imkon qadar ko’proq mashq qilishingizni tavsiya etamiz.



Teskari zARB



Teskari zARB sakkizta zarbdan iborat. O'ng qo'lning jimjiloq, bosh va ko'rsatkich barmoqlari ishtirokida hosil qilinadi.

Π V V- Π V V- Π V – zARBning yozilishi.

- Π** – birinchi zARB hamma barmoqlar bilan pastga
- V** – ikkinchi zARB bosh barmoq bilan tepaga
- V** – uchinch zARB ko'rsatkich barmoq bilan tepaga
- Π** – to'rtinch zARB hamma barmoqlar bilan pastga
- V** – beshinch zARB bosh barmoq bilan tepaga
- V** – oltinch zARB ko'rsatkich barmoq bilan tepaga
- Π** – yettinchi zARB hamma barmoqlar bilan pastga
- V** – sakkizinchi zARB bosh barmoq bilan tepaga

9-mashq

h b k h b k h b h b k h b k h b
 □ V V □ V V □ V □ V V □ V V □ V
 1 i 2 i 1 i 2 i



Topshiriq:

Teskari zARBni ham boshqa zarblar kabi har bir zARBini shoshamdan, aniqlik bilan chalishingiz zarur. Kuylarni chalishda bu zARB ham juda chiroyli joziba qo'shadi. Har kuni 30 daqiqadan chalish tavsiya etiladi.



15-dars



9-etyud



(Bekzod Safarov, Farangiz Maxmudova va Ilyos Arabov).



Topshiriq:

Teskari zarb mustahkamlash uchun qo'shimcha etyudni yaxshilab yodlash va ko'proq chalish. O'tilgan barcha darslarni takrorlash.



OQ TERAKMI KO'K TERAK

O'rtacha tezlikda

O'zbek xalq kuyi

Musical notation for the folk song "OQ TERAKMI KO'K TERAK". The notation is in 2/4 time with a key signature of one sharp (F#). The lyrics are written below the notes. Measure numbers 245 and 250 are indicated.

1 - i 2 - i 1 - i 2i 1 - i - hi 2 - i 1 - i 2i
1-i 2-i 1-i 2i 1 - i - hi 2 - i 1 - i 2i
1 - i 2 - i - hi

250



QORA QOSH

O'rtacha tezlikda

O'zbek xalq kuyi

Musical notation for the folk song "QORA QOSH". The notation is in 2/4 time with a key signature of two sharps (G# and D#). The lyrics are written below the notes.

1 - i - hi 2 - i - hi 3 - i - hi 4i



QUSHLAR

Shahdam

O'zbek xalq kuyi



YALLAMA YORIM

O'rtacha tezlikda

O'zbek xalq kuyi



ANDIJON POLKASI



Shahdam

O'zbek xalq kuyi

1 - i 2 - i 1 - i 2 - i



DILXIROJ

Jonli

O'zbek xalq kuyi

The score consists of three staves of music notation in 2/4 time, with a key signature of one sharp. The first staff uses a treble clef, the second staff uses a bass clef, and the third staff uses a tenor clef. The music features eighth-note patterns and rests.



RAYHOR KOROG'HA

HAY YOR-YOR YORING MAN



Shahdam

O'zbek xalq kuyi

1 - i - hi 2 - i 1 - i - hi 2 - i



NON YOPGANDA

Tez

O'zbek xalq kuyi



QASHQARCHA



O'rtacha tezlikda

O'zbek xalq kuyi

The musical score consists of three staves of music in 2/4 time. The key signature is one sharp. The first staff begins with a eighth note followed by six sixteenth-note pairs. The second staff starts with a eighth note followed by a sixteenth note, then a eighth note followed by a sixteenth note. The third staff starts with a eighth note followed by a sixteenth note, then a eighth note followed by a sixteenth note.



DO'LONCHA

Ildam

O'zbek xalq kuyi

The musical score consists of three staves of music in 2/4 time. The key signature is one sharp. The first staff begins with a eighth note followed by six sixteenth-note pairs. The second staff starts with a eighth note followed by a sixteenth note, then a eighth note followed by a sixteenth note. The third staff starts with a eighth note followed by a sixteenth note, then a eighth note followed by a sixteenth note.



GLOSSARIY

Abbreviatura (it. abbreviatura, lot. brevis – “qisqa”, nutq yoki yozuvda qisqartirish) – nota yozuvini qisqartirish va o’ng’aylashtirish belgilari.

Applikatura (nem. Applicatur, lot. Applico - “qo’ymoq”, bosmoq”) – musiqa cholg’u asboblarini ijro qilganda barmoqlarni to’g’ri qo’yish va almashtirish tartibi.

Artikulyatsiya (nem. Articulation, lot. Articulo – “mayda bo’laklarga bo’laman”) – musiqa cholg’u asboblari va ashulachi ovozida surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish usullari.

Auftakt - taktdan oldingi harakat. Ko’pincha dirijorlarning qo’l harakatlariga aytilsada, har qanday asar, kichik bir jumla boshlanishidan oldin har qanday ijrochi amalga oshiradigan harakat.

Ashula – keng tarqalgan vokal musiqa janri va shakli bo’lib, unda she’riy va musiqiy obrazlar bir-biriga uyg’unlashgan holda gavdalanadi. Ashulaning xalq va mualliflik turlari mavjud. Ashula tuzilishi va ijrosi bo'yicha turli janrlarga bo'linadi. Masalan: ommaviy, etsrada, ansambl, xor va boshqalar.

Ballada – (italyancha «ballade») - adabiy-poetik janr bo’lib, xalq o’tmishi haqidagi she’riy qissa. Qissa yoki hikoya qilib aytib berish xarakterida yozilgan cholg’u yoki vokal musiqa asari.

Doston so’zi forscha “qo’Ining davomi”, “barmoq o’rni”, “parda” degan tushunchalarni anglatadi. Istilohiy ma’noda esa afsona, rivoyat, ertak, hikoya, poema degan ma’nolarni bildiradi.

Dutor – fors tilidan olingan bo’lib, “ikki tor” ma’nosini anglatadi.

Interval – oraliq degan ma’noni bildirib, musiqada ikki musiqiy tovush oralig’iga interval deyiladi. Intervallar garmonik va melodik turlarga bo’linadi.



Kadensiya (it. *cadenza*, lot. *cadere-yig'ilaman*, *tugallanaman*) – tartibli holatda eshitilayotgan musiqaning tugallangan, bir maqsadga kelib to'xtagani yoki musiqa asarining butunlay tamom bo'lgani bo'lib, buni boshqacha kadans deb ham ataladi.

Kashish – pardani tepaga yoki pastga tortish.

Konsert – (lotincha «concertere») – “musobaqalashmoq”) - simfonik orkestr yoki xalq cholg'u asboblari orkestrining jo'rligi bilan, yolg'iz bir cholg'u yoki ovoz uchun yirik shaklda yozilgan musiqa asari. Konsert ko'proq 3 qismdan iborat bo'lib, 1-qismi – dramatik xarakterda – sur'ati tez, asosan sonata allegroshi shaklida, 2-qismi lirik xarakterli - salmoqli sur'atda bo'lsa, 3-qismi – final, tantanali raqs shaklida yoziladi.

Maqom – arabchadan “o'rin”, “joy” degan ma'noni bildirib, musiqada yirik shakldagi musiqiy asarlar majmuasi.

Musiqiy asar - ma'lum bir musiqiy asar B.Asafev ta'biri bilan aytganda uch xil ko'rinishda mavjud bo'ladi. Bu nota matni, ya'ni yozuv asosida. Ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijro. Tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida yuzaga keladigan asarning haqiqiy ijro jarayoni.

Musiqiy ifoda vositalari - tovush hosil qilish va uning akutsik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), o'Ichov, sur'at, agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

Musiqiy xotira – inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri, yod olish va xotirada saqlash bo'lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o'sha xotiradagilarni ma'lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish, namoyon qilish hisoblanadi.

Muxammas – beshlik degan ma'noni anglatadi.

Nola – pardani tebratish, sayqal berish.

Qo'shtor – dutorning ikki tori bir xil sozlanadi

Vals – (fransuzcha «valse») - ikki birgalikda ohista o'ynaydigan raqs. Musiqa o'Ichovi 3/4 bo'lib, tez, o'rtacha tez va vazmin sur'atlarda bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Rahimjonov. Dutorchilar ansamblı. T., 2002.
2. M.Ergashev. Ko'ngil guldastasi. T., 2005.
3. M.Ziyayeva. Dutor. T., 2008.
4. I.Arabov. Dutor. T., 2018.
5. I.Toshpo'ltova. An'anaviy cholg'u ijrochiligi (dutor). T., 2018.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "Davlat ilmiy nashriyoti".
7. Ўзбек халқ мусиқаси I-V жиллар. Нотага ёзиб олувчи ва тўпловчи: Юнус Ражабий. Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1955-59.
8. И. А. Акбаров. "Музика луғати". Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент, 1987.
9. А.Фитрат. "Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи". Тошкент, 1993 йил.
- 10.S.Begmatov, M.Matyoqubov. "O'zbek an'anaviy cholg'ulari" (o'quv qo'llanma). Toshkent, "Yangi nashr", 2008.

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA.....	3
KIRISH	4
Dutor cholg'u sozi haqida qisqacha ma'lumot	4
1-dars Dutorning tuzilishi	6
2-dars Dutorning ushslash holatlari	7
3-dars Dutorning sozlanishi va intervallar.....	8
4-dars Nota cho'zimlari va uning joylashuvi	10
5-dars Dutorda notalarning joylashuvi.....	12
6-dars Oddiy zarblar mashqi.....	13
7-dars	14
8-dars	15
9-dars	16
10-dars Murakkab zarblar.....	17
11-dars	18
12-dars Terma zARB.....	19
13-dars	20
14-dars Teskari zARB	21
15-dars	22
OQ TERAKMI KO'K TERAK.....	23
QORA QOSH.....	23
QUSHLAR.....	24
YALLAMA YORIM	24
ANDIJON POLKASI	25
DILXIROJ	25
HAY YOR-YOR YORING MAN.....	26
NON YOPGANDA.....	26
QASHQARCHA.....	27
DO'LONCHA	27
GLOSSARIY	28
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:	30

elmon@tibolve.yurt.kz tel: +998-91-1111111

Uzbek oblasnovchi meod UHOM "Tibolve yurt" raqamiga

qu-25: Jurchel miborij, inson uchun o'semiQ, jahonka insonigaT

8700-000 09248+ mobileT

O'quv nashr

Illyos Arabov

AN'ANAVIY DUTOR

“Tafakkur avlodii” nashriyoti, 2022

Muharrir:

A. Abdujalilov

Texnik muharrir:

Sh. Beknazarov

Badiiy muharrir:

Z. Shoimov

Musahhiha:

D. Beknazarova

Dizayner:

V. Xandamyan

Nash.lits. № 2013-975f-3e5e-d1e5-
f4f3-8537-2366, 20.08.2020 y.

Terishga 24.07.2022-yilda berildi. Bosishga 11.11.2022-yilda ruxsat etildi.

Bichimi: 60x84 1/8. Ofset bosma. «Arial» garniturasi. Shartli b.t. 4.0.

Nashr b.t. 3.72. Adadi 20 000 nusxa. Buyurtma № MV-05.

Bahosi shartnoma asosida.

Tafakkur avlodii” nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 19-uy.
e-mail: tafakkur_avlodii@mail.ru

“Tafakkur avlodii” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 19-uy.
Telefon: +99890 000-33-93



«Tafakkur avlod'i
nashriyoti

ISBN 978-9943-6901-4-1

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-6901-4-1.

9 789943 690141